

EKALOGIYA VA ATROF-MUHIT TUSHUNCHASI VA INSON HAYOTIGA
BOG'LIQLIGI

Sobirova Zuhraxon Murodjon qizi

Andijon yuridik texnikum o'quvchisi

Annotatsiya: Hozirgi davrda ekologik muammolar insoniyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solayotgan global masalalardan biri hisoblanadi. Inson faoliyatining turli sohalarida ro'y berayotgan texnologik o'zgarishlar, sanoatning rivojlanishi, transport vositalarining ortishi hamda tabiiy resurslardan me'yorsiz foydalanish natijasida ekalogiyamizda tabiiy muvozanat buzilmoqda. Shu bois ekologiya fani va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi tadqiqotlar bugungi kunda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda, bu yo'nalishlar orqali yoshlarning, kelajak avlodning salbiy va ijobiy harakatlari alohida e'tirof etilmoqda.

Kalit so'zlar: Ekologiya, atrof-muhit, barqaror rivojlanish, ekologik madaniyat, global isish, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarining, tuproq degradatsiyasi.

KIRISH

Ekologiya — bu tirik organizmlar va ularning yashash muhiti o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan bo'lib, u inson hayoti uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlarning saqlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiatning inson va jamiyat uchun ahamiyati juda katta va turli-tumandir. Uni inson ehtiyojini qondirish jihatlariga qarab, iqtisodiy, ilmiy, sog'lomlashtirish, tarbiyaviy va estetik kabi ahamiyatlarini farqlash mumkin.

Iqtisodiy - ahamiyati deyilganda undagi resurslardan (havo, tuproq, minerallar, o'simlik va hayvonlar) turli ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishda asosiy moddiy manba sifatida foydalanish tushuniladi. Ma'lumki, inson va jamiyat ehtiyojlarini qondiruvchi barcha mahsulot va xomashyolar tabiiy manbalar hisobiga yaratiladi.

Ilmiy - ahamiyati shu bilan belgilanadiki, insonning barcha bilimlari negizida tabiat va undagi turli jarayonlarni kuzatish, o'rganish, tahlil etish va amaliy xulosalar qilish yotadi.

Sog'lomlashtirish - ahamiyati deyilganda sof tabiiy unsurlar (musaffo havo, toza suv, unumdor tuproq, bahavo o'rmon)ning va shifo beruvchi tabiiy modda va jarayonlarning inson salomatligiga ijobiy ta'siri tushuniladi. Bundan qariyb ming yil avval yashab o'tgan buyuk o'tmishdoshimiz Abu Ali ibn Sino «Odamlar salomatligi tashqi sharoit bilan chambarchas bog'langan» deganda tabiatni aynan shu xususiyatini nazarda tutgan bo'lishiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Tarbiyaviy - ahamiyati deyilganda sof haqiqiy tabiatni kishilarda oliyanoblik, xushfe'llik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, g'amxo'rlik, muloyimlik kabi axloqiy xislatlarni uyg'otish va shakllantirish xususiyatlari tushuniladi. Tabiat qo'ynida yoki tez-tez u bilan birga bo'lish insonlarning yoshidan qat'i nazar ularda insoniy fazilatlarining kamol topishiga yordam beradi. Jamiyatda kuzatiladigan ruhiy qashshoqlik, loqaydlik, qo'pollik, jahldorlik, rahm-shafqatsizlik, vahshiylik kabi illatlarning avj olish sabablaridan biri ham kishilarni

sun'iy muhitga tushib, tabiatdan ajralib qolganliklaridandir. Ekologik muammolarni o'rganish jarayonida inson faoliyatining atrof-muhitga ta'siri alohida tahlil qilinadi. Oxirgi o'n yilliklarda atmosfera havosining ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi, tuproq degradatsiyasi va biologik xilma-xillikning kamayishi kabi salbiy holatlar kuchaymoqda. Bu jarayonlar global isish, cho'llanish, iqlim o'zgarishi kabi keng ko'lamli ekologik inqirozlarni keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida bir qator davlat dasturlari va nizomlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-yanvardagi 29-son qaroriga 1-ilova ushbu ilova O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risidagi Nizom imzolangan. Unga Davlat ekologik qo'mitalarining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va javobgarligi, faoliyatni tashkil etish va hisobot berish tartibn va boshqa bir qancha normalar belgilab qo'yilgan. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yili millionlab daraxtlar ekilmoqda. Shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish, suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha ham chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Asosiy qism

Insonning tabiatga ta'siri boshqa faol bo'lmagan mavjudotlar (o'simlik va hayvonot) ta'siriga nisbatan faol va xarakteri jihatdan tubdan farq qiladi. Ya'ni, inson ongi tufayli tabiatni o'z ehtiyoji va maqsadiga muvofiq tarzda o'zgartirish va moslashtirish imkoniyatiga ega. Tabiat bilan bo'ladigan munosabatlarda insonga faollik va boshqa tirik mavjudotlar orasida yetakchilik qilish huquqini beruvchi omil inson ongi ijtimoiy muhitda, ya'ni jamiyatda shakllanadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib insonni ikkita, ya'ni tabiiy va ijtimoiy muhitlarning mahsuli bo'lgan bioijtimoiy mavjudot deb atash mumkin. Insonda ham moddiy(tana) va ruhiy (ong) mohiyat mujassamlashgandir. U tirik mavjudot sifatida tabiat mahsuli, ongi tufayli esa ijtimoiy muhit(jamiyat) mahsuli hisoblanadi. O'zlarining biologik xususiyatlari, ijtimoiy mavqelari va boshqa sharoitlariga ko'ra turlicha ongga ega bo'lgan kishilar birgalikda kishilik jamiyatini tashkil etadilar. Bundan ko'rinib turibdiki, inson tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi ko'priklar vazifasini o'taydi. Bundan yana shunday xulosa ham kelib chiqadiki, inson tabiatni uzviy tarkibiy qismi bo'lganligi uchun ular tashkil etgan jamiyat ham tabiatsiz mavjud bo'la olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, tabiat, inson va jamiyat yaxlit bir tizim sifatida faoliyat ko'rsatadilar hamda ular mazkur tizimning tarkibiy qismlari bo'lib hisoblanadilar. Ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti aholi orasida ekologik madaniyatni oshirishdan iboratdir. Aholining ekologik savodxonligini rivojlantirish, ta'lim muassasalarida ekologik ta'limni kuchaytirish, yoshlarni tabiatga e'tiborli bo'lish ruhida tarbiyalash — barqaror taraqqiyotning muhim omillaridan biridir. Huddi fanda bo'lgani kabi nafaqat insonlar bilan munosabatlarda balki, tabiat bilan ham munosabatlarda ekologik madaniyat va ekologik ong tushunchasini yaratib olsak bo'ladi sababi har bir insonda bo'lgani kabi tabiatning ham insonlarga beradigan ne'matlari orqali o'zining bir qancha huquqlarini keltirib chiqaradi. Oddiy qilib aytgan aynan atrof-muhit insonning tiriklik manbaidir misol uchun inson suvsiz eng ko'pi bilan 7-10kun, havosiz 10-15daqqa, ovqatsiz 30 kungacha yashashi mumkin ekan. Endi o'zingiz aytin bu

yuqorida takidlangan barchasi tabiatning insoniyatga berayotga be'minnat hadyalari ekan. Nega biz insonlar tabiatga nisbatan adolatsiz munosabatda bo'lishimiz kerak? Nega yosh avlodga, farzandlarimizga tabiatni asrashlari kerak ekanligini, ularning kelajagi, sog'lom kelajaklari tabiatga, ekologiyaga oid ekanligini o'rgatmaysiz, tushuntirmaymiz

Inson faoliyatining tabiatga ta'siri va ekologik muvozanatni saqlash masalalari

Insoniyat faoliyati natijasida tabiatga turlicha ta'sirlar ko'rsatilib kelinmoqda. Ba'zi hollarda bu ta'sir ongli, maqsadli ravishda amalga oshirilsa, ayrim hollarda esa beparvolik va e'tiborsizlik oqibatida yuzaga keladi. So'nggi o'n yillikda chiqindilar, plastik idishlar va boshqa keraksiz materiallar miqdorining ortib borishi ekologik muhitning keskin yomonlashuviga sabab bo'lmoqda. Bunday chiqindilar havoning tozaligini pasaytiradi, atrof-muhitni ifloslantiradi hamda inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yosh avlodning bunday salbiy holatlarga befarq bo'lib o'sishi kelajakda ekologik inqirozning chuqurlashishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, jamiyat a'zolarining har biri o'zining harakati va xatti-harakatlari orqali tabiat bilan bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqishi zarur. Tabiatni asrash, ekologik madaniyatni shakllantirish va uni yoshlar ongiga singdirish kelajak avlod uchun xavfsiz, sog'lom hamda barqaror muhitni ta'minlashning muhim omilidir.

O'zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ijtimoiy, madaniy, siyosiy va ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Mazkur hujjatlar asosida tabiatga nisbatan shafqatsizlik, beparvolik yoki qonunga xilof harakatlar sodir etgan shaxslar ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan.

Ushbu me'yoriy hujjatlarning asosiy maqsadi — tabiatning buzilishining oldini olish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishdir. Tirik daraxtlarning noqonuniy kesilishi, ruxsatsiz qurilish ishlari olib borilishi yoki chiqindilarning tartibsiz yoqilishi kabi holatlar ekologik tizimga jiddiy zarar yetkazadi. Bu esa o'z navbatida inson yashayotgan muhit sifatining pasayishiga, iqlim o'zgarishining kuchayishiga va tabiiy muvozanatning buzilishiga olib keladi.

Shunday qilib, tabiatni muhofaza qilish, chiqindilarni to'g'ri qayta ishlash va ekologik madaniyatni rivojlantirish — har bir fuqaroning burchi bo'lishi zarur. Faqatgina shu yo'l bilan inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlab, kelajak avlod uchun sog'lom ekologik muhit yaratish mumkin bo'ladi.v

Xulosa

Ekologik muammolarni bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish zarur. Har bir davlatning ekologik siyosati xalqaro ekologik standartlarga muvofiq bo'lishi lozim. Inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash orqali kelajak avlodlarga sog'lom ekologik muhitni meros qilib qoldirish mumkin.

Ekologik muhofaza masalasi faqat hukumat yoki olimlarning emas, balki har bir fuqaroning kundalik hayotdagi mas'uliyatini ham o'z ichiga oladi. Tabiatni asrash — insoniyatning umumiy burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. <https://lex.uz/ru/docs/-54503>
3. Mayo clinic
4. P.S. Sulstonov “ Ekalogiya va Atrof muhitni muhofaza qilish asoslari
5. Sun'iy intellect